

**Do`stlik tuman Axborot-kutubxona markazi  
Axborot bibliografiya xizmati**



***Buyuk shoir, olim, yirik davlat arbobi va  
sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur  
(1483-1530) tavalludining 540 yilligi  
munosabati bilan  
“Bobur kabi seving vatanni”  
nomli kitobxonlarga eslatma***


***Ushbu kitobxonlarga eslatma Buyuk shoir, olim, yirik davlat arbobi va  
sarkardahayoti va ijodiga qiziquvchilar va o'rganish  
uchun tavsiya etiladi.***

Axborot-kutubxona markazi bibliografiya xizmati  
tomonidan tayyorlandi.

## *Buyuk shoir, olim, yirik davlat arbobi va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530).*


Boburning otasi — Umarshayx Mirzo Farg‘ona viloyati hokimi, onasi — Qutlug‘ Nigorxonim Mo‘g‘uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning onasi o‘qimishli bo‘lgan va oqila ayol bo‘lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko‘mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamroxlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari Sirdaryo bo‘yida, Axsida, yilning qolgan faslini Andijonda o‘tkazardi. Boburning yoshligi Andijonda o‘tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy ta‘lim, fiqx ilmi, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she‘riyatga qiziq boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan „Bobur“ („Sher“) laqabini oladi.

Bobur otasi yo‘lidan borib, mashhur sufiy — Xoja Ahrorga ixlos qo‘yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e‘tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, „Boburnoma“ asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasizlikdan xalos etganini, eng og‘ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta‘kidlaydi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo‘lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o‘tiradi (1494-yil iyun) Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nom qozongan bo‘lsa, serjilo o‘zbek tilida yozilgan „Boburnoma“ asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g‘azal va ruboiylari turkiy she‘riyatning eng nodir durdonalari bo‘lib, „Mubayyin“ („Bayon etilgan“), „Xatti Boburiy“, „Harb ishi“, aruz haqidagi risolalalari esa islom qonunshunosligi, she‘riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.




## Bobur portreti. XVII asr.

Adabiyot, nafis san'at, tabiat go'zalligiga yoshligidan mehr qo'ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida, yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa cho'zilmadi. 1494-yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o'rniga Farg'ona ulusining hokimi etib ko'tarilgan Bobur qalamni qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog'asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo'ldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga, Farg'ona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va o'zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi. Bir necha yil davom etgan bu kurash qirg'inbarotdan boshqa biror natija bermadi: unda katta harbiy kuch bilan aralashgan Shayboniyxonning qo'li baland keldi va Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur bo'ldi. 1504-yili Shayboniyxon Andijonni ham qo'lga kiritgandan so'ng, Bobur janubga qarab yo'l oldi va Kobul ulusida o'z hokimiyatini o'rnatdi. 1505–1515-yillarda u Markaziy Osiyoga qaytishga bir necha bor urinib ko'rdi. Ammo bu urinishlardan hech qanday natija chiqmadi.



So'ng o'z mavqeyini yanada mustahkamlash maqsadida, 1519–1525-yillar davomida Hindistonni qo'lga kiritish uchun bir necha bor janglar olib bordi. 1526-yil aprel oyida Panipatda Hindiston sultoni Ibrohim Lo'diy bilan va 1527-yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan bo'lgan janglarda

Boburning qo‘li baland keldi. Tarixiy ma‘lumotlarda bayon qilinishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim sulton siyosatidan norozi bo‘lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo‘llaganlar va Sikri jangidagi bu g‘alaba Boburga Hindistonda o‘z hukmronligini uzil-kesil o‘rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Ovro‘po tarixchiligida “Buyuk mo‘g‘ullar” nomi bilan “g‘alati mashhur” bo‘lgan Boburiylar sulolasi Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qildi.



### “Boburnoma”

Bobur Hindistonda keng ko‘lamli davlat ishlari bilan bir qatorda, o‘zining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi va yuqorida zikr etilgan asarlarini yaratdi. Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo‘lgan shoh asari “Boburnoma”dir. Ma‘lumki, unda Bobur yashagan davr oralig‘idagi Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Asar, asosan, uch qismdan iborat. Uning birinchi qismi XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro‘y bergan voqealarni, ikkinchi qismi XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya’ni Afgonistonda ro‘y bergan voqealarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, uchinchi qism XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag‘ishlangan. “Boburnoma”da o‘sha davrning siyosiy voqealari mukammal bayon qilinarkan, o‘z yurti Farg‘ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli,

uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, O‘sh, Urganch, O‘ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida nihoyatda nodir ma’lumotlar keltirilgan. Unda Kobul ulusining yirik shaharlari Kobul, G‘azna va ular ixtiyoridagi ko‘pdan ko‘p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy Hindiston haqidagi ma’lumotlarni uchratish mumkin. “Boburnoma”ni varaqlarkanmiz, ko‘z oldimizda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston xalqlariga xos bo‘lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olami kengligi va murakkabligi bilan birga, o‘sha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to‘liq manzarasi namoyon bo‘ladi. “Boburnoma”dagi ushbu ma’lumotlar Bobur davrida yozilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxond, Xondamir, Muhammad Solih, Binoiy, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allomiy va boshqa tarixchilarning asarlarida bu darajada aniq va mukammal yoritilgan emas. Muallif “Boburnoma”da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, Ulug‘bek Mirzo va boshqa allomalar haqida o‘zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi. “Boburnoma” Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri — XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o‘zida aks ettirgan, shu bilan birga, juda ko‘p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o‘zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jo‘g‘rofiy mavqeyi, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tog‘lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari va ularning yashash sharoitlari, urf-odatlari, muhim tarixiy inshootlari, hindular va musulmonlarning ibodatxonalari, to‘y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma’lumotlarni o‘ziga qamrab olgan shoh asardir. Shu bois “Boburnoma” tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hayratga solib kelmoqda. Uzoq yillar davomida G‘arb va Sharqning mashhur sharqshunos

olimlari “Boburnoma” mazmunini jahon jamoatchiligiga yetkazish borasida katta faoliyat ko‘rsatdilar. Masalan, gollandiyalik olim Vitsen, angliyalik olimlar J. Leyden, V. Zrskin, R. Koldekot, A. Beverej, T. Albot germaniyalik Yu. Klaynrat va A. Keyzer, fransiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi, turkiyalik R. R. Art va N. I. Bayur va bizning davrimizdagi fransiyalik olim Bakke Gromon, afg‘onistonlik olim Abulhay Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, Nadvi va Shoh Olam Mavliyot shular jumlasidandir. “Boburnoma”ni o‘rganish sohasida jahonning mashhur sharqshunoslari qatoridan yaponiyalik olimlar ham joy olmoqdalar. Ma’lumki, Boburning tarixiy, ilmiy, adabiy merosini o‘rganish va ommalashtirishda O‘zbekiston, Tojikiston, Rossiya olimlarining faoliyatlari ham diqqatga sazovordir. XIX–XX asrlar davomida Georg Ker, N. Ilminskiy, O. Senkovskiy, M. Salye, Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, V. Zohidov, Ya. G‘ulomov, R. Nabiyeu, S. Azimjonova, A. Kdiumov kabi olimlarning sa’y-harakatlari bilan “Boburnoma” bir necha bor rus va o‘zbek tillarida chop etildi, ularga so‘zboshi yozildi va keng kitobxonlar ommasining ma’naviy mulkiga aylantirildi. Uning she’rlari ham bir necha bor nashr etildi.

### **She’riy asarlari**

Bobur o‘zbek adabiyotida o‘zining nozik she’riy asarlari bilan ham mashhurdir. Uning hayoti va adabiy faoliyati Movarounnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan, feodal guruhlarining boshboshdoqlik harakatlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatining inqirozi davom etayotgan bir davrga to‘g‘ri kelgan edi. Bunday murakkabliklar in’ikosini “Boburnoma”da ko‘rgan bo‘lsak, ularning shoir ruhiyatida qanday aks etgani uning

she'rlarida namoyon bo'ldi. Movarounnahrni birlashtirishga urinishlari natija bermagach, Boburning ruhan qiynalgan, amaldorlarning xiyonatlari ta'sirida umidsizlikka tushgan kezlardagi kayfiyati she'rlarida aks etgan. Keyinchalik o'z yurtini tark etib, Afg'oniston va Hindistonga yuz tutganda Bobur she'riyatida Vatan tuyg'usi, Vatan sog'inchi, unga qaytish umidi mavj ura boshladi.

*Tole yo 'qi jonimg 'a balolig ' bo 'ldi,  
Har ishniki ayladim — xatolig ' bo 'ldi,  
O 'z yerni qo 'yib, Hind sori yuzlandim,  
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig ' bo 'ldi.*

Shu bilan birga, Bobur lirikasida she'riyatning asosiy mazmuni bo'lgan insoniy fazilatlar, yor vasli, go'zalligi, unga cheksiz muhabbat va hijron azobi, ayriliq alamlari va visol quvonchlari nihoyatda go'zal va mohirona ifoda etilgan.

*Xazon yaprog 'i yanglig ' gul yuzung hajrida sarg 'ardim,  
Ko 'rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim.  
Sen ey gul, qo 'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,  
Ayog 'ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim.*

Bobur o'z lirik she'rlarida odamlarni har doim yaxshilikka, adolat va insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg'ularni qadrlashga chaqirdi:

*Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,  
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.*

*Yaxshi kishi ko'rmag'ay yomonlig' hargiz,  
Har kimki yamon bo'lsa, jazo topqusidur.*

Bobur lirik she'rlari va tarixiy "Boburnoma" sidan tashqari islom qonunshunosligi va boshqa sohalarda ham asarlar yaratgan. 1522-yilda o'g'li Humoyunga atab yozgan "Mubayyin" nomli asarida o'sha zamon soliq tizimini, soliq yig'ishning qonun-qoidalarini, shariat bo'yicha kimdan qancha soliq olinishi va boshqa masalalarni nazmda izohlab bergan. "Xatti Boburiy" deb atalgan risolasida arab alifbosini turkiy tillar, xususan, o'zbek tili nuqtayi nazaridan birmuncha soddalashtirib berishga harakat qilgan. U tajriba sifatida "Xatti Boburiy" alifbosida Qur'oni Karimni ko'chirgan.

Boburning aruz vazni va qofiya masalalariga bag'ishlangan "Mufassal" nomli asari ham bo'lgan, biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan.

1526-yil 21-dekabrda Boburga qarshi suiqasd uyushtiriladi. Mahv etilgan Ibrohim Lo'diyning onasi oshpazlar bilan til biriktirib, uning ovqatiga zahar qo'shtiradi. Shuning asoratimi yoki ko'p yillik mashaqqatli va qo'nimsiz hayot ta'sirimi, har holda keyingi yillarda Bobur tez-tez kasalga chalinib turadi. 1527-yil oktabrida Bobur yana xastalikka uchragach, umrining oxirlab qolganini his etadi. Shunda Bobur o'zi e'tiqod qo'ygan Xoja Ahror Valiy ruhidan najot tilab, ixlos bilan uning nasrda bitilgan „Volidiya“ asarini she'riy tarjima qiladi. Boburning mohir tarjimon sifatidagi qobiliyati namoyon bo'lgan 243 baytli bu asar katta ijodiy ilhom bilan juda qisqa muddatda yakunlangan. Boburning o'z e'tiroficha, tarjima tugashi hamonoq batamom sog'ayib ketgan. Bu yillarda u „Boburnoma“ fasllari ustida ishlashni davom ettirdi, yangi-yangi g'azal-ruboiylar yaratdi, o'z iborasi bilan aytganda, „Hindistong'a kelgali aytqon ash'orni“ tartibga solib, shuningdek, „Volidiya“ tarjimasini, „Xatti Boburiy“ bilan bitilgan namuna va qit'alarni Movarounnahr va Afg'onistonga, Xumoyun, Xoja Kalon, Hindol va boshqalarga yubordi. Humoyun Mirzoga atalgan ijtimoiy-axloqiy masalalarni tahlil etuvchi mashhur maktubi ham Bobur ijodiy faoliyatining yorqin qirralaridan biri bo'ldi.

Bir necha muddat oldin podsholikni Humoyunga topshirgan Bobur 47 yoshida o'zi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va o'sha yerda dafn etildi, keyinchalik (1539), vasiyatiga muvofiq xoki Kobulga keltirilib, o'zi bunyod ettirgan „Bog'i Bobur“ga qo'yildi.



## Mustaqillik yillarida Bobur yodi



### Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi o'rta maktab

Bobur O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra 1993-yilda Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali nishonlandi. Andijon shahrida Bobur nomida univ, teatr, kutubxona, milliy bog' („Bog'i Bobur“) bor. Bobur milliy bog'i majmuasida „Bobur va jahon madaniyati“ muzeyi, shoirning ramziy qabr maqbarasi bunyod etilgan. Shahar markazida (muallifi Ravshan Mirtojiyev) va Bobur bog'idagi yodgorlik majmuida (muallifi Qodirjon Salohiddinov) shoirga haykal o'rnatildi. Andijondagi markaziy ko'chalardan biriga, shuningdek Toshkentdagi istirohat bog'i va ko'chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog'iga Bobur nomi berildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta'asis etildi. Sharqshunos olim Ubaydulla Karimov bu medalning birinchi sovrindori bo'ldi.

### Bobur ijodini o'rganish

Andijonlik tabiatshunos olim Zokirjon Mashrabov rahbarlik qiladigan Xalqaro Bobur jamg'armasi (1993.23.12) Bobur ijodini o'rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg'armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo'ylab avtomobilda ilmiy safarlar uyushtirib, 200 ming km dan ortiq masofani bosib o'tdi, Bobur va boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma'lumotlar to'plab, ularni ilmiy iste'molga kiritdi. Mazkur ma'lumotlar asosida 10 dan ziyod ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar (3. Mashrabov, S. Shokarimov: „Asrlarni bo'ylagan Bobur“; S. Jalilov: „Boburning Farg'ona davlati“, „Bobur va Andijon“; Qamchibek Kenja: „Hind sorig'a“; X. Sultonov: „Boburning tushlari“, „Boburiynoma“; R. Shamsuddinov: „Boburiylar izidan“, „Boburiylar sulolasi“; T. Nizom: „Uch so'z“), 10 ga yaqin hujjatli, videofilmlar (F.

Rasulov: „Bobur izidan“, „Muqaddas qadamjolar“; T. Ro‘ziyev: „Bobur salomi“, „Bobur nomidagi Xalqaro ilmiy ekspeditsiya“; T. Hamidov: „Iftixor“ va h.k.) yaratildi. Jamg‘armaning Lohur (Pokiston), Haydarobod (Hindiston), Abu Dabi (Birlashgan Arab Amirliklari), Moskva (RF), O‘sh (Qirg‘iziston), Toshkent, Namangan (O‘zbekiston) shaharlarida bo‘limlari mavjud. 1998 yil Jamg‘armaning boburshunoslik sohasidagi xalqaro mukofotlari ilk marta Pirimqul Qodirov, Sabohat Azimjonova, G‘aybulloh asSalom, Ne‘matilla Otajonov, Xayriddin Sultonov, Eyje Mano (Yaponiya), Muhammadali Abduqunduzov, Maqsud Yunusov, Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Ma‘murjon To‘xtasinov, Ravshan Mirtojiev, Majid Tursunov, Rahmonjon Azimov, Muhammadjon Mirzayevga berildi.



## *Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga bag‘ishlangan savollar va javoblar.*

1. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”ni ilk marta qanday atagan?

A. ”Vaqoye”

2. Bu haqida yana kim o‘z asarida ma’lumot berib o‘tgan?

A/ Gulbadanbegim”Humoyunnoma”

3. ”Boburnoma” qancha nom bilan bosilib chiqqan?

A/.20 dan ziyod

4.”...Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mumtoz insonlarni dunyoga bergan xalq hech qachon xor bo’lmaydi,muqarrar tarzda saodatga erishadi...”Bu fikrlar kimga tegishli?

A.I.A.Karimov

5.Asarda qancha hayvonot,o’simlik va joylarga oid so’zlarnng izohi,sharhi keltirilgan?

A.4000 dan ortiq

6. Zahiriddin Muhammad Bobur ibn Umarshayx Mirzo taxallusini ayting?

A/ Bobur

7.1494 yil Bobur hayotida qanday voqea yuz berdi.

A/ 12 yoshida taxtga o`tdi

8. Bobur Afg`onistonda qanday oromgohlar tashkil qilinadi?

A/Afg`onistonga Bobur o‘z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasbu hunar va qishloq xo’jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi. «Bog‘i Shaxroro», «Bog‘i Jahonoro», «O‘rtabog‘», «Bog‘i vafu» va «Bog‘i Bobur» kabi oromgohlar tashkil etdi.

9. 1526 yil 21 dekabrda Boburga qarshi suiqasd uyushtiriladi.Suiqasdni kim uyushtirdi?

A/ Suiqasdni Mahv etilgan Ibrohim Lo‘diyning onasi oshpazlar bilan til biriktirib, uning ovqatiga zahar qo‘shiradi.

10.Uning «Topmadim» radifli g‘azali va «Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi» misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi qaysi yillardagi hayoti bilan bog‘liq.

A/Bobur 18—19 yoshlarida ruboiy va g‘azallar yoza boshlagan bu g‘azallarni o`sha davrda yozgan.

11. 1512 yil 24 noyabrda G‘ijduvon jangida Bobur shayboniylardan yana yengilib qayerga qaytishga majbur do`ladi?

A, Kobulga qaytishga majbur bo‘ladi.

12. Hindiston yurishlari davri (1521)da Bobur qaysi asarini yaratdi?

A. «Mubayyin» asarini yaratdi.

13. Bobur o‘zi e’tiqod qo‘ygan Xoja Ahror Valiyning qaysi asarini tarjima qiladi?

Javob: Xoja Ahror Valiyning ruhidan najot tilab, ixlos bilan uning nasrda bitilgan «Volidiya» asarini she'riy tarjima qiladi. Boburning mohir tarjimon sifatidagi qobiliyati namoyon bo'lgan 243 baytli bu asar katta ijodiy ilhom bilan juda qisqa muddatda yakunlangan.

14. 1526 yil apr.da Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyning yuz ming kishilik qo'shinini o'zining necha minglik askari bilan yengadi?

Javob: 1526 yil apr.da 12 minglik askari bilan tormor qiladi hamda Dehlini egallaydi.

15. Bobur Ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib qaysi joylarni qo'lga kiritadi?

Javob: Shim. Hindistonning Bengaliyagacha bo'lgan qismini o'ziga bo'ysundiradi.

16. Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temurning nechanchi avlodi sanaladi?

Javob: Beshinchi

17. Bobur She'rlarining umumiy hajmi qancha?

Javob: 400 dan ortadi shundan 200dan ortig'I ruboiylardir.

18. Bobur so'zining ma'nosi nima?

Javob: Sher

19. Zahiriddin Muhammad Bobur qachon va qayerda tug'ilgan?

Javob: 1483 yil 14 fevral Andijonda

20. Istedodli shoir Boburning onasini ismi nima bo'lgan?

Javob: Qutluq Nigorxonim.

21. Mirzo Bobur Hindistonni qachon zabt etdi?

Javob: 1526 yili

22. Zahiriddin Muhammad Boburning eng katta asari bu?

Javob: Boburnoma

23. Bobur necha yoshida taxtga o'tiradi?

Javob: Otasining erta vafot etgani tufayli 12 yoshida taxtga o'tiradi.

24. Zahiriddin Muhammad Bobur Qachon va qayerda vafot etadi?

Javob: U 1530 yili Agrada vafot etadi.

25. Boburning zakot ishlari bo'yicha ma'lumot beruvchi qanday asari bor?

Javob: Mirzo Boburning soliq ishlari haqida ma'lumot beruvchi "Mubayyinu-zakat" nomli asari bor

26. savol Zahiriddin Muhammad Boburning aruz vazni haqida ma'lumot beruvchi asari nima deb nomlanadi?

Javob: Shoh va shoirning aruz vazni haqidagi asari "Risolai aruz" deb nomlanadi

27. savol Boburning qanday asarlari bor, lekin bizgacha yetib kelmagan? Javob: Bular "Harb ishi", "Musiqi ilmi" asarlari

28. savol Zahiriddin Muhammad Bobur necha yil umr ko'radi?

Javob: U bor-yo'g'i 47 yil umr ko'radi

29. savol Zahiriddin Muhammad Boburning qabri qayerda joylashgan?

Javob: Uning qabri Afg'onistonning poytaxti Qobul shaxrida joylashgan.

30. savol Boburning otasini ismi nima edi?

Javob: Boburning otasining ismi Umarshayx mirzo

31. Bobur video filimiga yozilgan Bobur g'zali bilan kuylangan "Yaxshilig" qo'shig'ini ijro qilgan qo'shiqchi kim?

A. Mamirjon To'stasinov kuylagan

32. "Boburnoma" o'zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko'ra necha qismdan iborat?

A. 3 qismga bo'linadi: Boburning Movarounnahr (1494—1504), Afg'oniston (1504—24) va Hindiston (1524—30)dagi hukmdorlik davriga bo'linadi.

33. Alisher Navoiy haqida Boburnomada nima deyiladi?

A: "Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytibturlar,— hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas".

34. "Boburnoma"da ko'plab san'atkorlar tavsif etilib, ularning ijodiy faoliyatlariga xolis baho beriladi. Ulardan kamida 5tasini ismini sanab bering?

A. "B."da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Ohiy, Muhammad Solih kabi o'nlab ijodkorlar, Xoja Abdullo Marvariy, Qul Muhammad Udiy, Shayx Noyiy, Yusuf Ali, Mullo Yorak, Shohquli G'ijjakiy, Husayn Udiy, Behzod, Shoh Muzaffar kabi ko'plab san'atkorlar tavsif etilib, ularning ijodiy faoliyatlariga xolis baho beriladi.

## Adabiyot

---

- Boburnoma, T., 1989; Baburname (Zizdaniye, dorabotannoye), T., 1993; Kitobssalot, T., 1993; Kitobzzakot, T., 1993; Kitoblhaj, T., 1993; Devon, T., 1994; Mahrami asror topmadim, T., 1995.
- Abdulahad Muhammadjonov, Abdurashid Abdugafurov, O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- Azimjonova S, Zahiriddin Muhammad Bobur, Maqolalar to‘plami, T., 1995; Axmedov Bobur, Istorikogeograficheskaya literatura Sredney Azii XVI—XVIII vv. (Pismennie pamyatniki), T., 1985; Samoylovich A., Sobraniye stixotvorennyy imperatora Babura, Petrograd, 1917; Stebleva I. V., Semantika gazeley Babura, M., 1982; Yoqubov H., Zahiriddin Muhammad Bobur, T., 1949; Hasanxoja Nisoriy, Muzakkiri ahbob, T., 1993; Hasanov S, Boburning Aruz risolasi, T., 1981; Mashrabov Z., Shokarimov S, Asrlarni bo‘ylagan Bobur, T., 1997; Vohidov R., Biz bilgan va bilmagan Bobur, T., 2000.
- X.Yoqubov. Bobir. -T.:1941;
- V.Zohidov. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Bobirnoma. -T.:1960;
- Azimjanova S. Indiyский divan Babura. T.: Fan, 1966.
- X.Nazarova."Boburnoma" tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. — T.: 1980;
- Stebleva I.V. Semantika gazeley Babura. — M.: 1983.
- H.Qudratullaev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983;
- S.Hasanov. Boburning „Risolayi aruz“ asari. -T.:1986;
- Xayriddin Sulton. Boburiynoma. -T.:1996;
- G‘aybulloh as-Salom, N.Otajon. Jahongashta „Boburnoma“. — T.:1996;
- U.Erskin. Hindistonda Bobur davlati (Ingliz tilidan G‘.Sotimov tar.). — T.: 1997;
- R.Sharma. Boburiylar saltanati (Ingliz tilidan G‘.Sotimov tar.).. -T.: 19

### Nashr qilingan asarlari

---

- Bobur. Tanlangan asarlar. -T.: 1958;
- Bobur. Asarlar. Uch jildlik.-T.: Fan, 1965-66;
- Bobur. Boburnoma. -T.: 1960, 1989;
- Bobur. Muxtasar. Toshkent, 1971;
- Babur. Traktat ob aruze (rodg. I.Steblevoy). — M.:1972;

- Bobur. Devon. -T.: Fan. 1994; 6. Bobur. Mubayyin. — T.: 2001.

Foydalanilgan adabiyotlar.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. *O`zbekiston milliy ensiklopediyasi "Davlat ilmiy nashryoti"* . 2005.0-704b.
2. *Homidiy va boshqalar. O`zbek adabiyoti (Malumotnoma): Akademik littsey va kasb-hunar kollejlari uchun qo`llanma Mualliflar: Homidiy, O.Nosirov, M.Mamurov.-T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri.,2003.-104b.*
3. *Ijtimiy tarmoqlardan foydalanildi. saviyar.uz*

do`stlik akm munira raximova